
Ehtiyojmand oilalar qo'llab-quvvatlanmoqda




Ehtiyojmand oilalar qo'llab-quvvatlanmoqda

Aholining ijtimoiy ko'makka mo'htoj qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish, holidan xabar olib, kamchilik va muammolarini bartaraf etish kabi omillar bugun har bir rahbarning asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Chunki O'zbekistonda fuqarolarning manfaati barcha narsadan ustun. Ahamiyatlisi, qilinayotgan barcha g'amxo'rliklar fuqarolarning manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotir.

" - Mahallamizda "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida ko'p arziqli ishlar amalga oshirildi. Saxovatpesha tadbirkorlarimizning qilingan barcha xayr-ehsonlari mahallamizdagi ehtiyojmand oilalarga tarqatib berildi," - deydi Sarikanda mahalla fuqarolar yig'ini raisi Bahodir Safoev. Mahalla raisining so'zlariga ko'ra, bugun mahallada yana bir xayrli ish amalga oshirilmoqda. Qo'li ochiq saxovatpesha insonlar ko'magi asosida mahallada yashovchi fuqaro Samejon Mamanabievning uyi ta'mirlanmoqda. Bunday tashabbusdan oila a'zolari juda minnatdor. Ta'mirlash ishlari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilgan fuqarolar tomonidan qilinayotganligi ham mahallada mehr-oqibat kabi insoniy fazilat barqarorligidan dalolatdir.



Qolaversa, mahallada tomorqadan samarali foydalanish targ'iboti ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Aynan ta'mirlash ishlari olib borilayotgan xonadon vakillari bu mas'alaga alohida e'tibor qaratishgan. Uy bekasini har doim tomorqa ichidan topasiz.



Xulosa, o'rnida shuni aytish mumkinki, bugun Sux tumanida har bir fuqaro bir yumush bilan band, chunki "harakatdan baraka hosil bo'lishini" tuman ahli yaxshi bilishadi. Tumanda "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasidagi xayrli amallar jadallik bilan davom etayotir.